

LACETTI GENTRA AVTOMOBILINING NAZORAT-O'LCHOV ASBOBLARI PANELIGA GAZ BALLONLI MOSLAMA UCHUN DATCHIK O'R NATISH LOYIHASI

To`rayev Shoyadbek

Andijon mashinasozlik instituti “Transport vositalar muhandisligi” kafedrasida dotsenti.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi ekologik tanglikni keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish esa hozirgi zamon texnikasiga asoslangan. Texnikaning manbai esa fandır. Demak, ekologik qiyinchiliklar fan-texnika taraqqiyoti bilan bog`liqdir[1].

Tejamkorlik va zamonaviylik har qanday soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, bugungi kunda avtomobilsozlik bilan shug`ullanayotgan kompaniya yoki korxonalar borki, ularning barchasi ushbu talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga harakat qilmoqda. Buning o`ziga xos sabablari bor, albatta. Bu, avvalo, avtotransport vositalariga ehtiyoj ortib borayotgani bilan izohlansa, ikkinchidan, korxonalarining raqobat maydonida o`z o`rnini mustahkamlashga bulgan intilishi natijasidir[2-3].

Transport vositalarida texnika taraqqiyotining rivojlanishi ularda o`rnatilayotgan nazorat-o`lchov asboblarining vazifalari, ularning konstruksiyalari ancha zamonaviylashdi. Nazorat o`lchov-asboblari haydovchiga avtomobilning agregatlari, alohida tizimlarini holati va me`yorida ishlayotganligi haqida habar berib turish uchun xizmat qiladi[4].

Haydovchiga ma`lumotni uzatish usuli bo`yicha nazorat - o`lchov asboblari *ko`rsatuvchi* va *darak beruvchi* guruhlarga bo`linadi.

Avtomobillarda nazorat qilinuvchi parametrlar soni tobora o`shib borayotganligi sababli va haydovchini diqqatini kamroq chalg`itish maqsadida, oxirgi vaqtda, hamma turdagi avtomobillarda darakchi asboblarning soni oshib borayotgani kuzatilmoqda. Ba`zi avtomobillarda ularni birga ishlatish hollari ham uchrab turadi.


2015 yil mobaynida “GM-Uzbekistan” aksiyadorlik jamiyati tomonidan T-250 loyihasi doirasida “Evro-5” talablariga mos “Ravon” brendi ostidagi “Nexia-R3” hamda gaz ballonli “Lacetti” avtomobillarini ishlab chiqarish yo`lga qo`yilganligi yaqin kunlarda xaridorlarga taqdim etilishi mamlakatimiz avtosanoati salohiyatini yana bir pog`onaga yuksaltiradi[5].

Shunday qilib, yuqoridagi ma`lumotlarga tayangan holda men ushbu maqolamda **“Lacetti Gentra avtomobilining nazorat o`lchov asboblari paneliga gaz ballonli moslama uchun datchik o`rnatish loyihasi”** ni taklif qilmoqchiman.

Hozirgi kunda neft mahsulotlarini zahirasini kamayib borishi, avtomobillar uchun boshqa turdagi yonilg`ilardan foydalanish kerakligi kunning dolzarb masaladir. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha turdagi avtomobillarga gaz ballonli jihozlar o`rnatilmoqda. Ma`lumni avtomobilning yonilg`i datchigi bakda qancha miqdorda yonilg`i qolganligi ko`rsatish uchun ishlatiladi. Gaz ballon bilan jihozlangan avtomobillarda gaz ballonda qancha bosimda gaz qolganligini bilish uchun gaz reduktori atrofida bosimni ko`rsatuvchi datchik yoki avtomobil saloni ichida indikatorli datchik qo`shimcha o`rnatilib, haydovchiga ko`rsatuvchi ma`lumotlar raqamli va yorug`lik signalli datchiklar o`rnatiladi[6-7].



1-rasm. Lacetti avtomobilining nazorat-o'lov asboblari paneli.



2-rasm. Lacetti Gentra avtomobili uchun tavsiya etilayotgan gaz datchigini nazorat-o'lov asboblari panelida o'rnatilgan holati.

1-tormoz suyuqligini sathining signal lampasi; 2-elektor nosozlik lampasi;

3-to'xtatib turish tormozi va tormoz suyuqligini sathining signal lampasi; 4-moy bosimini signal lampasi; 5-akkumulatorning zaradlanish signali lampasi;

6-spidometr; 7-o'tilgan masofa hisoblagichi; 8- eshiklar yopilishi signali lampasi; 9-yonilg'i miqdori signali lampasi; 10-uzoqni yoritish farasi signali lampasi;

11-xavfsizlik tasmasi signali lampasi; **12-benzin va gaz yonilg'i miqdori ko'rsatgichlari;** 13-sovitish suyuqligining harorat ko'rsatgichi; 14-burilish ko'rsatgichi va falokat signal lampasi; 15-aylanish chastotasini o'lchaydigan taxometr.

Demak, xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, gaz yonilg'isidan foydalanish avtomobillarni ekologik tozaligi garovi bo'lib, Lacetti avtomobilining dvigateli elektron boshqarish bloki orqali gaz yonilg'isida (2-rasm) ham boshqarilishi uglevodorod - CO₂ ni 25 % kamligi, gaz yonilg'isi benzindan arzonligi, bajarilayotgan ishning 5-10 % ga yaxshilanishiga olib keladi[8-9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BOSCH Avtomobilsozlik bo'yicha spravochnik (nemis tilida). Fluent Deutschland GmbH 2007.

2. . Turayev S. et al. The importance of modern composite materials in the development of the automotive industry //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). - 2021. - T. 10. - №. 3. - C. 398-401.

3. Turaev S. A., Rakhmatov S. M. O. Introduction of innovative management in the system of passenger transportation and automated system of passenger transportation in passenger transportation //Asian Journal of Multidimensional Research. - 2022. - T. 11. - №. 3. - C. 34-38.

4. Ahmadjonovich T. S. Aminboyev Abdulaziz Shukhratbek o'g'li. Light automobile steel wheel manufacturing technology //Asian Journal of Multidimensional Research. - С. 18-23.2022.
5. Turaev S. The role of polymer materials used in the development of automobile industry //Asian Journal of Multidimensional Research. - 2022. - Т. 11. - №. 5. - С. 284-288.
6. Тўраев Ш. А. Автомобилларда ишлатиладиган пластик деталларига қўйиладиган талаблар ва уларнинг механик хоссаларини тадқиқ қилиш. - 2022..
7. Тўраев Ш. А. Автомобиль втулкаларининг ҳар хил полимер материалларини ейилишини аниқлаш. - 2021.
8. Ahmadjonovich T. S. et al. THE ROLE OF COMPOSITE MATERIALS USED IN AUTOMOBILE DEVELOPMENT //Scientific Impulse. - 2022. - Т. 1. - №. 4. - С. 409-414.
9. Turaev S. A., Aminboyev A. S. O. Light automobile steel wheel manufacturing technology //Asian Journal of Multidimensional Research. - 2022. - Т. 11. - №. 3. - С. 25-30.
10. Ahmadjonovich, То'rayev Shoyadbek AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN YUQORI BOSIMLI GAZ BALLONLARIDA ISHLATILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLAR TAXLILI. Ilmiy impuls, 2022/12/1 С-106-111.
11. Ahmadjonovich T. S. PROPERTIES OF COMPOSITE POLYMER MATERIALS AND COATINGS USED IN AUTOMOBILES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. - 2023. - Т. 2. - №. 19. - С. 160-168.